

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Ч.Х.Чамолов</b>	
Ифодаи мафхуми ишқ дар шеъри фарзона .....	435
<b>Е.В.Шевченко</b>	
Особенности историзма в романах пирамкула кадырова .....	439
<b>Я.И.Нишанов</b>	
Общечеловеческое значение сюжета, касающийся всего человечества.....	441
<b>E.R.Adjemina</b>	
Phraseological image and motivational model .....	444
<b>Н.Д.Ирина</b>	
Влияние философии Ницше на русскую литературу начала XX века.....	447
<b>Н.Д.Ирина</b>	
Литературный стиль и философские идеи в произведениях Франца Кафки: Абсурд, отчуждение и экзистенциальный кризис.....	453
<b>Я.И.Нишанов</b>	
Место и роль воспевания самой прекрасной истории в творчестве Дурбека .....	457

## TILSHUNOSLIK

<b>I.M.Qo'chqarov</b>	
The grammatical features of speech acts in english .....	460
<b>A.Z.Nurbek</b>	
O'zbek tilshunosligida nutqiy aktlarga doir tadqiqotlar: usul va yondashuvlar .....	464
<b>S.A.Yusupova</b>	
Pragmatic use of respect in various communicative contexts .....	471
<b>S.A.Yusupova</b>	
linguistic expressions of respect in english and japanese .....	474
<b>Sh.Y.Usmonova</b>	
Comparative study of landscape terms in english and uzbek .....	477
<b>M.K.Uktamova</b>	
The main components expressing the meaning of the seme "Character" in english phraseological units .....	480
<b>D.X.Madazizova</b>	
Badiiy diskursda dialektlar individual nutq yaratuvchi vosita sifatida .....	483
<b>Sh.B.Karimova</b>	
O'zbek va ingliz tillaridagi son komponentli frazeologizmlarda kvantitativlikning ifodalanishi ..	488
<b>Sh.B.Karimova</b>	
O'zbek tili va ingliz tillarida kvantitativlik birliklarining sathlararo tahlili .....	495
<b>Sh.R.Karimjonova</b>	
Semantic analysis of visual cognitive verbs in uzbek and english .....	500
<b>Sh.B.Dushatova</b>	
Euphemisms representing hidden and mysterious concepts .....	507
<b>Sh.T.Axmadjonova</b>	
Definition and components of comprehension skills .....	511
<b>Sh.M.Aripova</b>	
Linguocultural analysis of superstitions .....	515
<b>Sh.M.Aripova</b>	
O'zbek va nemis tillarida irim-sirimlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksemalar tahlili .....	519
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Frazeologik birliklarda jinsiy va yosh identifikatsiyasi: til va madaniyatning o'zaro aloqasi .....	522
<b>N.X.Alieva</b>	
Interlingual correspondence as a factor in enriching phraseology and identifying isomorphism and allomorphism of languages .....	525
<b>R.U.Axrorova, M.T.Mamadaliyeva</b>	
O'zbek amaliyotida turistik atamalarni standartlashtirishda ingliz tilining o'mni .....	530
<b>M.S.G'aniyeva</b>	
O'zbekiston ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonida gender munosabatlari hamda tadbirkor ayol fenomenining falsafiy talqini .....	533



УО'К: 364.144. 396.1. 323.326 (575.1)

**O'ZBEKISTON IJTIMOIY TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA GENDER MUNOSABATLARI HAMDA TADBIRKOR AYOL FENOMENINING FALSAFIY TALQINI**

**ГЕНДЕРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНА ЖЕНЩИНЫ-ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ УЗБЕКИСТАНА**

**GENDER RELATIONS IN THE PROCESS OF SOCIAL TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN AND THE PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE PHENOMENON OF THE ENTREPRENEURIAL WOMAN**

G'aniyeva Malikaxon Sodiqjonovna 

Farg'onan davlat universiteti ingliz tili amaliy kursi kafedrasiga o'qituvchisi

**Annotasiya**

Maqolada O'zbekiston ijtimoiy transformatsiya jarayonida gender munosabatlari va tadbirkor ayol fenomeni falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Jamiatda ayollar faoliigining oshishi ijtimoiy barqarorlik, gender tenglik va iqtisodiy taraqqiyot o'tasidagi uzviy bog'iqlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Mamiakatda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar xalqaro tajribalar bilan uyg'unlikda tahlil qilinadi. Maqolada tadbirkor ayollar fenomeni, ularning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi roli, shuningdek, bu jarayonning falsafiy hamda madaniy asosi yorililadi. Xorijiy tajribalar tahlili ayollarning iqtisodiy faoliyatda ishtirokini oshirish orqali ijtimoiy tenglikka erishish va iqtisodiy inqirozlarining oldini olishdagi muvaffaqiyatli usullarni o'rganish imkonini beradi. Xorijiy tashkilotlar, jumladan, BMT, UNDP va OECD tajribalari O'zbekistonda gender tenglikni rivojlantirish va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlarini ilmiy asosda takomillashtirishda muhimdir. Ayollarни tadbirkorlikka jalb qilish nafaqat iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, balki jamiyatning ijtimoiy ongida yangi qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqola ushbu masalaning nazariy va amaliy jihatlariga to'xtalib, O'zbekistonda gender munosabatlarini takomillashtirishga qaratilgan takiiflarni ilgari suradi.

**Аннотация**

В статье философски анализируются гендерные отношения и феномен женщины-предпринимателя в процессе социальной трансформации Узбекистана. Подчеркивается, что повышенная активность женщин в обществе имеет важное значение для обеспечения неразрывной связи между социальной стабильностью, гендерным равенством и экономическим прогрессом. Проводимая в стране государственная политика по обеспечению гендерного равенства и практические меры, направленные на развитие женского предпринимательства, анализируются в гармонии с международным опытом. В статье освещается феномен женщин-предпринимателей, их роль в экономической и социальной жизни, а также философская и культурная основа этого процесса. Анализ зарубежного опыта позволяет изучить успешные методы достижения социальной справедливости и предотвращения экономических кризисов за счет увеличения участия женщин в экономической деятельности. Опыт зарубежных организаций, в том числе ООН, ПРООН и ОЭСР, важен для развития гендерного равенства в Узбекистане и научного совершенствования программ поддержки женского предпринимательства. Привлечение женщин к предпринимательству не только ускоряет экономическое развитие, но и служит формированию новых ценностей в общественном сознании общества. Статья затрагивает теоретические и практические аспекты данного вопроса и выдвигает предложения, направленные на улучшение гендерных отношений в Узбекистане.

**Abstract**

The article philosophically analyzes gender relations and the phenomenon of an entrepreneurial woman in the process of social transformation of Uzbekistan. It is argued that the increase in women's activism in society is important in ensuring an inextricable link between social stability, gender equality and economic progress. Public Policy and practical measures aimed at the development of women's entrepreneurship, carried out in the country to ensure gender equality, are analyzed in harmony with international experiences. The article highlights the phenomenon of women entrepreneurs, their role in economic and social life, as well as the philosophical and cultural basis of this process. The analysis of foreign experiences enables the study of successful methods in achieving social equality and preventing economic crises by increasing the participation of women in economic activities. The experiences of foreign organizations, including the UN, UNDP and OECD, are important in the scientific improvement of programs to promote gender equality and support women's entrepreneurship in Uzbekistan. The involvement of women in entrepreneurship not only accelerates economic development, but also serves to form new values in the social consciousness of society.

The article will focus on the theoretical and practical aspects of this issue and promote proposals aimed at improving gender relations in Uzbekistan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, shaxsiyat, jins, tadbirkorlik, tenglik, gender tengligi, ayol, maqom, tenglik, bandlik, sotsializatsiya.

**Ключевые слова:** общество, личность, гендер, предпринимательство, равенство, гендерное равенство, женщина, статус, паритет, занятость, социализация.

**Key words:** society, personality, gender, entrepreneurship, equality, gender equality, woman, status, parity, employment, socialization.

## KIRISH

Jahon miqyosida sodir bo'layotgan globallashuv, modernizatsiyalashuv jarayonlari gender munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati hamda jamiyat umumiy taraqqiyotiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. BMT sha'feligida o'tkazilgan ayollar maqomi bo'yicha 1975-2000 yillar oralig'ida o'tkazilgan "To'rt xalqaro konferentsiya"lar doirasida "BMTning Ayollar o'n yilligi", 2010 yilga kelib esa "BMT Ayollar" maxsus tuzilmasi faoliyat yurita boshladi. 2018 yilda BMT tomonidan e'lon qilingan "Va'ddalardan harakatlar sari: 2030 - yilgacha barqaror rivojanish sohasi kun tartibidagi Gender tengligi" [2.] dasturida ustuvor yo'nalishlaridan "Ayollar tabbirkorligi"ni qo'llab-quvvatlash tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida zamонавија jamiyatda ayollar tadbirkorligini ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlar prizmasida o'rganish va rivojlantirish dolzarbligini belgilamoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida gender tengligi, xususan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish istiqbollarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini o'rgangan holda fundamental ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, BMTning xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqot va o'quv institutida (ISTRRAW) [3.] "Ayollar kamsitilishi"ning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashish, "Gender tengligi", "Gender index"si, "Ayollar tadbirkorligi (biznesi)"ga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Albatta, mazkur masala G'arbona qarashlarga "Erkak va ayollar o'rtasidagi har qanday dioskriminatsiya holatlarini bartaraf etishga qaratilgan"ligi hamda Sharqona "Ayolni - Ona timsoli bilan qiyoslanadi" va quydagi "Ayolning joni qirqa" kabi qarashlarga ajratish mumkin. Bunday sivilazatsion yondashuvlarni ilgari surish orqali ayollarning iqtisodiy faoliyiklarini oshirish jamiyat farovonligi indikatori sifatida ahamiyatlidir. Ayollar tadbirkorligi nafaqat oila a'zolarining iqtisodiy, ijtimoiy, balki butun bir jamiyat barqarorligiga o'z ta'sirini o'tkazayotganligini kuzatishimiz mumkin.

O'zbekiston jamiyatining yangi taraqqiyot bosqichida gender tenligi, jumladan "ayollar tadbirkorligi"ni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan sifatida gavdalanmoqda. Jamiyatning iqtisodiy ravnaqi va aholi turmush darajasini oshirish masalaga alohida e'tibor qaratilishi o'z navbatida xotin-qizlarimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faollashuviga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlari va gender tebqligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaralmoqda" [1. 267.]. Bu bilan yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-ma'naviy hayotida gender tengligi masalasi islohotlarni markazida ekanligini anglatmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jamiyatda shaxslararo tenglik, gender tengligi va ayollar mehnat faoliyati, xususan ayollar tadbirkorligi muammolariga alohida ijtimoiy masala sifatida Qadimgi Yunon faylasuflaridan Antifont, Likafonn, Salon, Sineka, Platon, Arastu, Suqrot, Pifagor, Tsitsiron, Foma Akvinskiy, Demokrit, Emiliy Papinianlar tomonidan o'rqniganligini kuzatsak, Sharqda Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Muhammad Gazzoliy, Imom Buxoriy, Az-Zamahshariy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobumirzo, Konfutsiy, Lao-Szi kabi mutafakkir va davlat arboblari asarlari hamda ilmiy qarashlari asos bo'lib xizmat qilgan. Klassik Garb olimlardan I.Kant, K.Marks, F.Engels, Z.Freyd, M.Veber, E.Fromm, J.J.Russo, Sh.L.Monteske, Dj.Lokk, Mery Uolt Kraft, G.T.Mill, J.S.Mill, R.Peterson, K.Veymeyerlarning ilmiy asarlarida gender tengligi va xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jihatlarini sotsio-psixologik hamda ijtimoiy-falsafiy kontekstida tadqiq qilishga harakat qilishgan.

MDH vakillaridan O.A.Belyaeva, O.M.Vovchenko, E.I.Stebunova, Ya.Sadovnichaya, O.A.Voronina, L.N.Nadominskaya, E.Gruzdeva, V.Mixaylyuk, E.Novikovalarning nazariy va empirik

## TILSHUNOSLIK

tadqiqotlari bilan bir qatorda ilmiy ishlardida zamonaviy jamiyat taraqqiyotida erkak va ayollar o'rtasidagi tenglik, ularning ishbilarmonlik faoliyatlarini amalga oshirishlaridagi yuzaga keladigan muammolarini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy-falsafiy hamda madaniy tomondan yoritilgan bo'lsada, ayollar tadbirkorligi keng tadqiq etilmagan.

Jamiyatdagi gender tengligi va ayollar mehnati(tadbirkorligi) masalalariga sharqona va teologik nuqtai nazaridan Qadimgi "Avesto"dan tortib muqaddas manbalarga tayangan holda Markaziy Osiyoda ham o'ziga xos diniy-ma'rifiy qarashlar tarkib topgan hamda sharqona tamaddunida katta ta'sirga ega. Insonda, xususan ayollarda mehnat va kasbiy ko'nikmalari, ishbilarmonlik fazilatlarini shakllanishida islam madaniyati, milliy, sharqona qadriyatlar, shuningdek ommaviy madaniyat elementlarining uyg'unlashuvini kuzatishimiz mumkin. Mintaqamizda tarixan qaror topgan Turonzamin va Mavuronnahrda suveren O'zbekistonning boy milliy-madaniy qadriyatlar teologik, mental hamda global qorishma sifatida mazkur muammoga doir ijtimoiy-falsafiy qarashlarda vorisiylik, novatorlik va progress tamoyillari asosida rivojlanganligini e'tirof etishimiz mumkin.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan X.Shayxova, Q.Nazarov, V.Alimasov, Sh.Madaeva, O.Nishonova, M.Qaxxorova, S.Safaeva, E.Sultonova, Ya.Abdullayeva, D.Alimova, T.Egamberdieva va N.Annaevalar jamiyatimiz ijtimoiy rivojlanish jarayonida gender tengligi, ayollar tadbirkorligi muammolarini, milliy-mental determinantlari va global-proksiologik mohiyatini ijtimoiy-falsafiy, psixologik hamda tarixiy xususiyatlarini o'rganish borasida o'z tadqiqotlarini olib borganlar. Shunday bo'lsa-da, bizning tadqiqotimizga mos tadqiqot sifatida N.R.Annaevaning jamiyatning transformatsiyalashuv jarayonlarida yangi iqtisodiy tushunchalari qatorida ayol tadbirkor fenomenining ijtimoiy-falsafiy jihatdan mahsus mustaqil milliy dissertatsion tadqiqot sifatida keltirishimiz mumkin [4. 56.]. Yuqorida e'tirof etilgan mualliflar va ularning manbaalari mavzuimiz yoritishuchun akademik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot mobaynida ayollar tadbirkorligi bo'yicha izlanish olib borgan ko'plab mualliflar asarlaridagi ta'riflar o'rganildi, qiyosiy tahlil qilindi hamda shu paytgacha bu tushuncha o'z mukammal ta'rifini topmagani ayon bo'lidi.

Gender tengligi sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiyot, sotsiologiya, gender tadqiqotlari va menejment kabi turli ilmiy fanlarda faol o'rganilmoqda. Ushbu mavzuni o'rganayotgan zamonaviy olimlarning asosiy yondashuvlari va g'oyalarini ko'rib chiqing:

*Iqtisodiy yondashuv Amartiya Sen:* "Ayollarning iqtisodiy faolligini rivojlanishning asosiy omillaridan biri deb biladi. "Ozodlik sifatida rivojlanish" kitobida u ayollarning iqtisodiyotga qo'shilishi qashshoqlikni kamaytirishga va inson kapitalini oshirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Sen ayollarning iqtisodiy mustaqilligi ularning siyosiy va ijtimoiy ta'sirini kuchaytiradi" [5. 430.], deb ta'kidlaydi. *Sara Karter:* Ayollar va erkaklar tadbirkorligi o'rtasidagi farqlarni o'rganadi. Karterning ta'kidlashicha, "ayollar xizmat ko'rsatish korxonalarini qurish ehtimoli ko'proq va moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyati kamroq. Ayollar uchun moliyaviy va institutsional to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishni taklif qiladi" [6.]

*Sotsiologik yondashuv* Sherri Sandberg: "Lean in" kitobida "ayollarning tadbirkorlikda muvaffaqiyat qozonishiga to'sqinlik qiladigan ijtimoiy va madaniy to'siqlarni tahlil qiladi. Sandberg ayol rahbarlarning roli va ayollarning etakchiligidan jamoatchilik idrokini o'zgartirish zarurligi to'g'risida savollar tug'diradi" [7. 381.]. Candace Steel: "Ijtimoiy me'yorlarning ayollarning biznesdagi ishtirokiga ta'sirini o'rganadi, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun an'anaviy gender rollarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi" [8.]

*Gender tadqiqotlari* Joys Vandervin: "Startaplar va innovatsiyalarda gender jihatlarini o'rganadi. Vandervenning ta'kidlashicha, biznesdagi ayollar yanada barqaror va ijtimoiy mas'uliyatlari strategiyalarni qo'llashga moyildirlar" [9.]. Rosabeth Kanter: o'z asarlarida "gender tengligining korporativ tuzilmalarga ta'sirini tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, etakchilik pozitsiyalarida ayollarning mavjudligi boshqaruv yondashuvlarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi" [10.]

*Madaniy yondashuv* Xofstede: Madaniy tafovutlarning iqtisodiy xulq-atvorga ta'sirini o'rganib, Xofstede "gender tafovutlariga nisbatan madaniy bag'rikengligi yuqori bo'lgan mamlakatlar ayollar tadbirkorligining rivojlangan sektoriga ega ekanligini ko'rsatdi" [11.]. Nensi

Lokvud: "Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda madaniy xususiyatlarning o'rni va global tashabbuslarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi" [12.]

*Psixologik yondashuv* Karol Gilligan: "Motivatsiyadagi gender farqlarini o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, ayollar tadbirkorlikni nafaqat foyda olish uchun, balki ijtimoiy muammolarni hal qilish usuli sifatida tanlashadi" [13. 288.]. Tereza Amabile: "Ijodkorlik va innovatsiyalarni ayollar tadbirkorligining asosiy jihatlari sifatida ko'rib chiqadi va ularning muvaffaqiyatli biznesni barpo etishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi" [14. 207-211.]

O'zbekistonda zamonaviy tadqiqotlar O'zbekistonlik olim Dilorom Tursunova "xotin-qizlar tadbirkorligini ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar kontekstida o'rganib, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishda gender tengligi muhimligini ta'kidladi" [15. 33-38.]. Zulayxo Muhiddinova "davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mikromoliyalashtirish dasturlarining qishloq joylarida ayollar biznesini rivojlantirishga ta'sirini tahlil qiladi" [16.]. Z.Muhiddinova qishloq joylarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va ularning samaradorligi haqida batafsil tahlil berilgan.

Zamonaviy ilmiy qarashlar ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy jarayon, balki kompleks yondashuvni talab qiladigan ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidlaydi. To'siqlarni olib tashlash, stereotiplarni o'zgartirish va tadbirkor ayollar uchun qulay sharoitlarni yaratish gender tengligi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin.

Mazkur ishda tadbirkorlik faoliyati mutlaqo ixtiyoriy, erkin faoliyat turi ekani, undagi tavakkalchilik (risk) o'zbek ayoli uchun eng avvalo oilasi, farzandlari osoyishtaligi, farovon yashashi uchun zarurligi ta'kidlanadi.

Ayollarga xos immanent belgilar to'g'risida mulohaza yuritganda xitoylik faylasuf ayol Szin-Nin Sunning quyidagi fikrlarini qayd etish joiz deb hisoblaymiz:

"ayol - go'zallik ijodkoridir". Ular o'zini go'zallik, musaffolik va erdag'i tartibning saqlovchilar sifatida tutishi zarur. Hayot ayolning qo'llariga muhtojdir" [17. 114.] uning fikricha, ayollar liderligi va tadbirkorligi sharqona an'analarga, xususan, Dao falsafasiga mos keladi. Sharq ayoli qanday faoliyat bilan shug'ullanmasin, deb uqtiradi bu dono ayol, u go'zallikni targ'ib etuvchi, axloqiy ideallarni o'zida ifoda qiluvchi timsol bo'lib qoladi;

## XULOSA

Mayzuga doir olib borilgan tadqiqotimizning ilmiy-nazariy tahlillarga tayanib quyidagi umumiy xulosalarini keltirishimiz mumkin:

Ayol va erkak o'rtasidagi turli ijtimoiy mohiyatga ega munosabatlar Markaziy Osiyo, xususan zamonaviy O'zbekiston xududida ming yildan ortiq tarixiy rivojlanish tajribasidagi: uzviylik, qarama-qarshilik hamda istiqbollar prizmasidagi murakkab tizimga ega ekanligini kuzatishimiz mumkin. Aynan shunday boy gender tengligi doirasidagi shakllanib kelgan o'ziga xos milliy-mental qarashlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan taddiq etish orqali umum e'tirof etilgan gender tushunchasining aksiologik jihatdan boyitishiga olib keladi.

Xotin-qizlarni o'z mentalitetidan kelib chiqqan holda ichki iqtisodiy faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy tafakkurni yuksaltirish omillariga oid tadqiqotlarni ko'paytirish zarur bo'ladi. Bu esa ko'zlanayotgan maqcad va strategik rivojlanishning o'ziga xos ucul va vocitalarini shakllanishiga sabab bo'ladi. Bizningcha, bularsiz xalqaro iqtisodiy munosabatlarga hech bir davlat kirisha olmaydi.

Ayol tadbirkorlar tashqi iqticodiy aloqalarga kirishishida ularning iqtisodiy tafakkuri muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bundan ko'zlangan maqcad - xotin-qizlarning tafakkuri natijasida yaratilgan "mahsulotlar"ni jahon bozorida qimmat va foydali sotishdan iboratdir. Buni amalga oshirish uchun "maqsad va vosita" koplekslarini ishga solish zarur. Bizningcha, bu jarayon global iqtisodiy jarayonda ishtirok etayotgan millatning geografik o'rni, hududiy joylashuvi, texnika va texnologiyalarni, milliy qadriyatlarni va iqtisodiy calohiyatni yuksalish jihatli bilan o'z ifodasini topadi.

Ayollar tadbirkorligi haqida ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar va falsafiy tafakkur qilish tarzi sifatida iqtisodning maqsadi, rejasи, hamda dunyoning iqtisodiy manzarasi kabi bir qator jarayonlarni taraqqiy etishi bilan bog'liq bo'lgan voqeylekni qamrab oladi.

Ayollar tadbirkorligini zamonaviy bilimlar bilan boyitmasdan turib ularni xalqaro iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisi, ya'ni sub'ekti sifatida faoliyat yuritishlariga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu

## TILSHUNOSLIK

sababli ham xalqning iqtisodiy salohiyatini yukcaltiruvchi kuch sifatida yoshlar tarbiyasini davr ruhiga mos bo'lgan zaruriy talabdir.

O'z obro'si va taraqqiyot yo'li bilan yuksalib borayotgan mustaqil O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatni teng huquqli a'zosi sifatida milliy iqticodiyot sohasidagi islohotlarni modernizasiyalash asosida xalqning turmush farovonligini yuksaltirishga erishmoqda. Bunda, birinchi navbatda, kambag'allikni qisqartirish mamlakatning iqtisodiy islohotlarining ustuvor vazifasi sanaladi; ikkinchidan esa xotin-qizlarni ham chet tilini o'rganishlari va zamonaviy ilg'or texnologiyalarni puxta o'zlashtirishlari ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning oliy maqsadidir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиев Ш.М. Янги Ўзбекистон тарақкӣёт стратегияси. - Тошкент: О'zbekiston, 2022. - Б 267.
2. <https://www.unwomen.org/sites/default/files/Headquarters/Attachments/Sections/Library/Publications/2018/S-DG-report-Gender-equality-in-the-2030-Agenda-for-Sustainable-Development-2018-ru.pdf>
3. <https://www.un.org/ru/conferences/women> Аннаева, Н.Р. Аёллар тадбиркорлигининг генезиси, назарияси ва амалиёти (Ўзбекистон мисолида) Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. - Самарқанд: 2018. - Б. 56.
4. Сен Амартия. Развитие как свобода (пер. с англ. под ред. и с послесл. Р.М.Нуреева). - Москва: Новое изд-во. Либер. миссия, 2004. - С. 430.
5. [https://strathprints.strath.ac.uk/8962/1/SBS\\_2006\\_Report\\_for\\_BIS.pdf](https://strathprints.strath.ac.uk/8962/1/SBS_2006_Report_for_BIS.pdf)
6. Шерил Сэндбер, Нелл Сковелл Не бойся: женщина, работа и воля (перевод с англ. Анна Знанаенская) - Москва: Альпина Паблишн, 2017. - С. 381.
7. <https://elleuzbekistan.com/ru/kendis-svejnpol/>
8. [https://www.philharmonicsociety.org/jhv-vanderveen?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.philharmonicsociety.org/jhv-vanderveen?utm_source=chatgpt.com)
9. [https://www.e-executive.ru/career/hr-management/1997532-gendermyi-balans-v-kompanii-zachem-on-nuzhen-i-kak-ego-dostich?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.e-executive.ru/career/hr-management/1997532-gendermyi-balans-v-kompanii-zachem-on-nuzhen-i-kak-ego-dostich?utm_source=chatgpt.com)
10. <https://dialog.guide/kulturnye-izmiereniia-khofstiedie/>
11. [https://www.forbes.ru/forbes-woman/366607-mir-stereotipov-chto-meshaet-zhenskomu-predprinimatelstvu?utm\\_source=chatgpt.com&utm\\_medium=refferral&utm\\_campaign=chatgpt.com&utm\\_referrer=chatgpt.co](https://www.forbes.ru/forbes-woman/366607-mir-stereotipov-chto-meshaet-zhenskomu-predprinimatelstvu?utm_source=chatgpt.com&utm_medium=refferral&utm_campaign=chatgpt.com&utm_referrer=chatgpt.co)
12. Гиллиган К. Иным голосом: психологическая теория и развитие женщин // Этическая мысль: Научн.-публицист. чтения. 1991 / Общ. ред. А.А.Гусейнова. - М.: Республика, 1992. - С. 288.
13. Amabile T.M. Understanding retirement requires getting inside people's stories: A call for more qualitative research. *Work, Aging and Retirement*, 5(3), 2019. - P. 207-211.
14. Tursunova D.T. Talaba xotin-qizlarda ijtimoiy faoliytni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari (Modern Approaches to Developing Social Activity among Female Students). *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(3), 2023. - P. 33-38.
15. <https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-yoshlar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-va-rivojlantirishda-amalgoshirilayotgan-islohotlar-samarasi>
16. Цзинь-Нин Цун. Искусство войны. Древнекитайская мудрость Сунь-Цзы для женщин, стремящихся к успеху. - М.: ЭКСМО, 2008. - С. 114.
17. Бенда Т.В. Гендерная психология лидерства. - Оренбург: Логос, 2000. - С. 283.
18. Ganiyev B.S. (2019). INNOVATIVE (ENTREPRENEURIAL) ACTIVITY OF WOMEN AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT OF OUR SOCIETY. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(11), 122-129.
19. Ganieva Malika Sodykjanovna "Cocio-philosophical aspects of the study of the issue of gender and entrepreneurial woman in a new society" // *Asian journal of Multidimensional Research*: 2021. Vol. 12: Iss. 10, - P. 441-445.
20. Ganieva Malika Sodykjanovna "In the society of woman-girls innovation socio-philosophical essence of entrepreneurial" // *Scientific progress*: 2021. Vol. 8: Iss. 2, - P. 947-951.